

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/PhD.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

OMONOVA MAXFURAT KELDIYAROVNA

**MELIORATIV TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falcafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

Omonova Maxfurat Keldiyarovna

Meliorativ terminlarning leksik-semantik xususiyatlari (ingliz va o'zbek tillari misolida)..... 3

Омонова Махфурат Келдияровна

Лексико-семантические особенности мелиоративных терминов
(на английском и узбекском языках)..... 21

Omonova Maxfurat Keldiyarovna

Lexical-semantic features of meliorative terms (in the English and Uzbek languages)..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 47

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.Fil/PhD.83.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

OMONOVA MAXFURAT KELDIYAROVNA

**MELIORATIV TERMINLARNING LEKSIK-SEMANTIK
XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.1.PhD/Fil753 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifaning www.samdu.uz hamda «ZiyoNet» axborot – ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Jabborov Xo'jamurod Jabborovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xayrullayev Xurshid Zayniyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Axmedov Oybek Saparboyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Phd.83.01 raqamli Ilmiy kengashning «5» May 2023-yil soat 12.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (99866) 238-29-42; faks: (99866) 239-12-29; e-mail: info@samdchti.uz.)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 61443 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (99866) 238-29-42.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «20» aprel kuni tarqatildi.
(2023-yil «20» aprel dagi 69 raqamli reyestr bayonnomasi)



[Handwritten signatures in blue ink]

I.M.Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

G.K.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo tilshunosligida soʻnggi yillarda, ayniqsa, oʻzbek tilshunosligida ingliz, rus, oʻzbek tillarini oʻzaro qiyoslab oʻrganishga boʻlgan qiziqish kuchaymoqda. Chunki Yangi Oʻzbekistonda xalqaro miqyosda fan va texnika, ishlab chiqarish, sanoat, qishloq va suv xoʻjaligi, irrigatsiya va melioratsiya sohalari boʻyicha xorijiy mamlakatlar bilan oʻzaro hamkorlik shartnomalarining keng koʻlamda tuzilayotganligi, tajriba almashish va tadbirkorlikning tez surʼatlar bilan rivojlanishi natijasida ingliz, rus, oʻzbek tillarida ish yuritish, oʻzaro muloqot uchun til oʻrganishga boʻlgan talab va ehtiyoj ham ortib bormoqda.

Ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligi – dunyo mamlakatlari va respublikamizda qishloq va suv xoʻjaligi sohasining rivojlanishi, unga boʻlgan yangicha yondashuvlar qishloq va suv xoʻjaligiga oid terminologik tizimini qiyosiy tadqiq qilish zarurati borligi bilan belgilanadi. Fan-texnikaning taraqqiyoti, sohalari rivoji, oʻzaro tajriba almashish, innovatsiyalarni jadal surʼatlarda keng tatbiq qilish maʼlumotlar almashish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Bu esa turli tizimdagi tillar terminologiyasining muntazam tadqiqi va tartibga solinishini taqozo qiladi. Melioratsiya sohasi terminologiyasiga xorijiy tillardan koʻplab yangi terminlarning kirib kelishi ushbu terminlarning leksik-semantik, struktur-derivatsion xususiyatlari, adabiy til meyorlariga qay darajada mosligi, inson omili bilan bogʻliq holda nutq uslublarida qoʻllanish xususiyatlarini turli tizimli tillar asosida ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalar mavzuning dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmonining uchinchi bobi 30-boʻlimida “Tuproq unumdorligini oshirish va muhofaza qilish. Nufuzli xalqaro ilmiy markazlar va oliy taʼlim muassasalari bilan birgalikda Xalqaro qishloq xoʻjaligi universitetini tashkil etish, agrar sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish¹, - zarurligi alohida uqtirilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 05 iyundagi PQ-3775-son “Oliy taʼlim muassasalarida taʼlim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini taʼminlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”, 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son Oʻzbekiston Respublikasida “Xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarorlari, 2020 yil 20 oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2017 yil 16 fevraldagi PF – 4958-son “Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlimni yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ -60-сон “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Lex.uz.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Terminologiya tilshunoslik sohasining dolzarb masalalari markazida bo‘lib kelgan. Dunyo tilshunosligida umumiy va xususiy terminologiya masalalari, terminlarning shakllanishi, ularga xos leksik-semantik, grammatik, terminologik xususiyatlar muntazam o‘rganilib kelinmoqda². “Oxford Elementary learner’s dictionary” lug‘atida quyidagicha ta’rif keltirilgan, “Term – a word or group of words connected with a special subject³. (Termin – bu turli sohalar bilan bog‘liq maxsus so‘zlardir). Turli tizimli tillar terminologiyasi muammolari har doim tilshunoslik sohasining dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Jahon tilshunosligida sohaviy terminologiyaning umumiy va xususiy masalalari, terminlarning paydo bo‘lishi, ularga xos leksik-semantik, struktur-grammatik, terminlarning motivlanish belgilariga ko‘ra nomlanishi va ularning tizimli aloqalari, lug‘aviy qatlamlari kabi xususiyatlari muntazam o‘rganilib kelinmoqda⁴.

Ma’lum bo‘lishicha, “Avesto” paydo bo‘lgan davridayoq g‘alla ekish, don yetishtirish, umuman, dehqonchilikning barcha sohalari qatorida melioratsiya va irrigatsiya ishlari ham yetarli darajada rivojlangan.⁵ Ingliz tilida ham qishloq xo‘jaligi, xususan, dehqonchilikning irrigatsiya va melioratsiya sohalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan, bu sohada maxsus lug‘atlar yaratilgan bo‘lib, soha terminlari haqida kengroq ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Mishel Mod, Andryu F. Grifs, Kevin Rouz, Troy Daggerlar hammuallifligida “A Beginning of Farmer’s Guide to Agriculture words, terms and definations” nomli fermerlar uchun agroterminlar qo‘llanmasi, R. Skot Frey tomonidan glossariy “A Glossary of Agriculture, Environment, and Sustainable development”, A.K.Singh va N.P.Singhlar tomonidan “Agricultural Terminology”, Doktor P.Chandra Shekxara tomonidan esa fermerlar uchun “Farmer’s Handbook on Basic Agriculture” nomli qo‘llanma nashr etilgan. Ayniqsa, Hayzer Betmenn, Stiv Kurtis va Keyt Mak Adamlar tomonidan yaratilgan “Dictionary of Agriculture” izohli lug‘ati qimmatli qo‘llanma sifatida mashhurdir.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligida ham terminologiya masalalari asosan ikki yo‘nalishda o‘rganilmoqda, birinchisini, o‘zbek tili sohaviy terminologiyasi masalalarini o‘rganish tashkil etsa, ikkinchisini esa turli tizimli tillar sohaviy terminologiyasini chog‘ishtirma tilshunoslik yo‘nalishi asosida o‘rganish tashkil etadi. Shu jihatdan mavzuning o‘rganilishini ikki guruhga ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq. 1.O‘zbek tilshunosligida terminologiya masalalari U.Tursunov,

²Rondeau G. Introduction ‘a la terminology. – Montreal, 1981. - 564 p.;

³ <https://oxford-elementary-learner-s-dictionary.software.informer.com> Oxford,2012; P.425

⁴Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. - М., 1961. – С.158.

⁵ Авесто. Тарихий – абадий ёдгорлик // Аскар Маҳкам таржимаси. – Тошкент, 2001. – Б. 114-115.

S.Akobirov, O.Usmonov, S.Ibrohimov, R.Doniyorov, A.Hojiyev, H.Dadaboyev, G'.Abdurahmanov, A.Madvaliyev, Z.Mirahmedova, X.Jamolxonov, R.Sharopova, X.Jabborov, N.Qosimov kabi tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan⁶ va ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan lug'atlar tuzilgan.⁷ 2. Chog'ishtirma tilshunoslikning terminologiya va leksikografiya masalalari bo'yicha M.E. Umarxo'jayev X.D. Paluanova, D. Saidqodirova, O.S. Axmedov, D.X. Kadirbekova, I.X. Sadikova, N.S. Nurmatova, P.P. Nishonov, M.Hoshimxo'jayeva kabi tadqiqotchilar o'zbek tili sohaviy terminologiyasi hamda xorijiy tillar materiallarining qiyosiy tadqiqini amalga oshirgan.⁸

⁶ Турсунов У. Терминология масалалари. – Тошкент, 2021; Ўзбек адабий тилида сўз – терминлар танлаш принциплари. – Самарқанд: СамДУ, 1956. – 136 б; Ўзбек терминологиясининг бойиш йўллари // ЎзДУ асарлари. Янги серия. 102-сон. – Самарқанд, 1959; Ўзбек терминологияси масалалари. – Тошкент: Ўздавнашр, 1933. – 42 б; Ақобиров С. Терминология ишнинг мазмуни ва вазифалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. – №3. –Б. 36; Усмонов О. Русча не- префикси сўз-терминларининг ўзбек тилида ифодаланишида но- префиксининг роли // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1979. – 2-сон. –Б. 18-20; Иброҳимов С. Ипакчилик халқ терминлари масаласига доир // Тил ва адабиёт институти асарлари. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1949; Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. I. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956; Фарғона шеваларининг касб- хунар лексикаси. II, III. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1959; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари: Филол. фан. докт. ... дисс.– Тошкент, 1988. – 346 б.; Усмонов А.Н. Ўзбек тилида термин ясовчи фаол аффикслар. – Т., 1991; Ҳожиёв А. Термин танлаш мезонлари. – Т.: Фан, 1996; Абдурахмонов Ғ. Терминология муаммолари // Ўзбек тили терминологияси ва унинг таракқиёт перспективалари: 1-республика терминология конференцияси материаллари. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 3-4; Мадвалиев А. Ўзбек терминологияси ва лексикографияси масалалари. –Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2017; Дадабаев Х. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. – Ташкент: Ёзувчи, 1991. – 186 с.; Мираҳмедова З. Ўзбек тилининг анатомик терминологияси ва уни тартибга солиш муаммолари. – Тошкент: Фан, 2010; Джамалханов Х.А. К истории формирования и развития узбекской ботанической терминологии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968; Шаропова Р. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019. –23 б. Жабборов Х. Ўзбек тилининг суғориш лексикаси. –Қарши: Насаф, 2004. – 155 б.; Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси. Монография. –Тошкент: Фан, 2011. – 160 б. Шаропова Р. Ўзбек тили ижтимоий-сиёсий терминларининг семантик-структур хусусиятлари ва лексикографик талқини: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) ... дисс. автореф. – Қарши, 2019. –23 б. Қосимов Н. Техникавий терминлар ясашида аффиксларнинг иштироки // Ўзбек тили ва адабиёти. 1974. № 2. – Б. 37-42; Ўзбек тили илмий-техникавий терминологияси. – Тошкент: Фан, 1985.

⁷ Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969; Будагов Л.З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. Санктпетербург.: тип. Императорский Академии Наук, Т. I. -1869. - 810 Т. II. – 1871 - 415 с; Мурзаев Э. Словарь народных географических терминов.-М.; Мысль, 1959,- 633 с; Монгольско-русско-английский словарь.(под ред.Цэдэдамбы Д) -У.Батор.,1986,- 435 с; Мирзаев Н.Ўзбек тили этнографизмларининг изоҳли луғати.-Т.: Фан, 1991.-118 б; Холназаров С. Ёш деҳқон энциклопедик луғати – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2018 . М. Хасаний, Қадимий боғдорчиликнинг изоҳли луғати - Тошкент: Ўзбекистон 2016 ; Мухаммадхонов С., Жонгузаров Ф. – Ўсимликшуносликка оид русча-ўзбекча изоҳли луғат. - Тошкент: Ўзбекистон 1986; Адаменко П. – Англо-русский сельскохозяйственный словарь – Русский язык Москва 1983 .Раҳимбоев Ф.М., Азимхўжаев Х, Гидротехникадан русча-ўзбекча луғат,- Т.: Ўқитувчи, 1993, - 96 б. Хакасско-русский словарь,- М.: Изд.иност.и национ.словарей, 1953. - 487. Усмонов О., Дониёров Р. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. 2-нашри. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 424 б. Жабборов Х Деҳқончилик сўзларининг қисқача изоҳли луғати. – Қарши: Насаф, 2016. – 296 б.

⁸ Умарходжаев М. Э. Принципы составления многоязычного фразеологического словаря: Автореф.дисс. канд. ... филол. Наук. М., 1972. –25с., Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). Филол фан. докт. ... диссер. автореф. – Ташкент, 2016. – 32 с., Саидқодирова Д. Инглиз ва ўзбек тилларида интернет терминларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) ... дисс. –Тошкент, 2018. – 143б., Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 2016. – 255 б., Кадирбекова Д.Х. Инглизча-ўзбекча ахборот-коммуникация технологиялари терминологияси ва унинг лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 44 б., Садыкова И.Х. Принципы составления англо-русско-узбекского учебного словаря юридических терминов: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1998. – 174 с.; Нурматова С.Х.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi meliorativ terminlarni qiyosiy jihatdan talqin qilish asnosida ularning leksik-semantik, struktur-grammatik xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tilshunosligida meliorativ termin tushunchasini yoritish va uning til tizimidagi o'rnini belgilash;

ingliz va o'zbek tilidagi meliorativ terminlarni struktur-grammatik jihatdan tavsiflash;

ingliz va o'zbek tilidagi meliorativ terminlarning leksik-semantik xususiyatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida meliorativ terminlarda sinonimiya, antonimiya, polisemiya hodisalarini yoritish;

ingliz va o'zbek tillarida meliorativ terminlarning yasalish xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi melioratsiyaga oid terminlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi meliorativ terminlarning leksik-semantik, struktur-derivatsion xususiyatlarini tadqiq etish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, leksik-semantik, derivatsion, statistik, nominatsion-motivatsion tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillari melioratsiya terminologiyasi hozirgi rivojlanish bosqichida tartibga solingan til birliklari majmuini tashkil etishi va o'z xususiy o'rganish obyektiga ega nolisoniy jarayon sifatida maydonga kelganligi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillari melioratsiya sohasiga doir terminlar leksik-semantik guruhlariga ajratilib, har bir guruh o'z strukturasi va semantik xususiyatiga ko'ra turli ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalashi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi meliorativ terminlarning matndagi leksik qurshoviga, shuningdek, ma'no qirralari faollashuvi darajasiga bog'liqligi nutqda doimiy va zaruriy bo'lishini, leksik ma'nolari semantik nuqtai nazardan ularga sinonimiya, antonimiya, polisemiya hodisalari xosligi dalillangan;

ingliz va o'zbek tillarida ekin maydonlari shakli va hajmi, joylashish o'rnini, qarashlilik, sifati, unumsiz, unumdorligi, sug'orilish, sug'orilmasligi kabi

Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. – 24 с.; Нишоннов П.П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 2.; Хошимхўжаева М. Оламнинг лисоний тасвирида фитонимлар (инглиз, рус ва узбек тиллари мисолида) Филол. фан. бўйича фалс. докт. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 51 б.

motivlanish belgilariga ko'ra turlicha nomlanishi, melioratsiya sohasida tub va birikmali terminlarning hosil bo'lishiga olib kelishi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillari melioratsiya terminologik tizimini amaliy jihatdan yangi daliliy materiallar bilan boyitishga xizmat qiladi. Tadqiqot asosida oliy o'quv yurtlari filologiya yo'nalishidagi bakalavrlar uchun mo'ljallangan "Tilshunoslikka kirish", "O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi", "Qiyosiy tipologiya" fanlarini o'qitish va o'rgatishda, "Terminlarning lingvistik xususiyatlari" mavzusida maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkin. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanidan yaratiladigan darslik, o'quv qo'llanmalarida terminologiya masalalariga doir bo'limni yozishda foydalanish mumkin; o'zbek, ingliz, rus tillaridagi turli manbalardagi meliorativ terminlarning ma'nolari aniqlanib, shu asosda "O'zbekcha-ruscha-inglizcha melioratsiyaga oid terminlarining izohli lug'ati" yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda jalb etilgan nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, qo'llanilgan yondashuv usullari, keltirilgan tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, uning xulosa va natijalari "O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi", "Qiyosiy tilshunoslik", "Tarjimashunoslik" "Leksikologiya", "Leksikografiya", kabi fanlarni o'qitish va o'rgatishda hamda tegishli o'rinlarini yangi nazariy ma'lumotlar bilan boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, oliy ta'lim tizimida "Amaliy tilshunoslik", "O'zbek terminologiyasi", "O'zbek leksikografiyasi", "O'zbek tili leksikologiyasi", "Tarjimashunoslik", "Leksikografiya nazariyasi" fanlaridan maxsus kurs sifatida o'qitishda, shuningdek, ushbu fanlar bo'yicha darslik, qo'llanma va uslubiy tavsiyalar yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning xulosa va materiallaridan ingliz, o'zbek tillarida o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda hamda o'quv qo'llanma va magistrlik ishlarini yozishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek va ingliz tili meliorativ terminlarining lingvistik tadqiqi masalalarini yoritish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

ingliz va o'zbek tillari melioratsiya terminologiyasi hozirgi rivojlanish bosqichida tartibga solingan til birliklari majmuini tashkil etishi va o'z xususiy o'rganish obyektiga ega nolisoniy jarayon sifatida maydonga kelganligiga doir ilmiy xulosalaridan FA-F1-GOOZ raqamli "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalishi" nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limining 2021 yil 2 apreldagi 1701/42-son ma'lumotnomasi). Natijada meliorativ terminlarining diaxron va sinxron shakllari, qaysi tildan kelib chiqqanligini aniqlashga doir ma'lumotlar bilan boyitilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi meliorativ terminlarning matndagi leksik qurshoviga, shuningdek, ma'no qirralari faollashuvi darajasiga bog'liqligi nutqda doimiy va zaruriy bo'lishini, leksik ma'nolari semantik nuqtai nazardan ularga sinonimiya, antonimiya, polisemiya hodisalari xosligiga doir materiallardan melioratsiya, irrigatsiya va suv xo'jaligi sohasiga aloqador bo'lgan mutaxassislar va keng kitobxonlar ommasiga

mo'ljallangan "O'zbekcha-ruscha-inglizcha melioratsiyaga oid terminlarning izohli lug'ati" nomli lug'atni nashrga tayyorlashda foydalanilgan (O'zR Dasturiy mahsulotlar davlat reestri 2022 yil 10 noyabrdagi 19185-son guvohnomasi). Natijada irrigatsiya va melioratsiya sohasi mutaxassislarining o'zbek, rus, ingliz tillarida shu sohaga oid bilimlarini boyitish, ularning kommunikativ layoqatini o'stirishda muhim vosita bo'lgan uch tilli ta'limiy lug'at tuzish imkonini yaratgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi melioratsiyaga oid terminlarning temuriylar davridagi sug'orma dehqonchilik madaniyati va melioratsiyaga oid terminlarning hosil bo'lishiga olib keluvchi ekin maydonlari shakli va hajmi, joylashish o'rni, qarashliligi, sifati, unumsizligi-unumdorligi, sug'orilish- sug'orilmasligi kabi motivlanish belgilariga ko'ra turlicha nomlanishiga oid ilmiy-nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash Jamoat fondi tomonidan Parlament komissiyasining 22.06.2020 yildagi Qaroriga asosan e'lon qilingan 67-10/136-raqamli Davlat granti bo'yicha Xalqaro Amir Temur xayriya jamoat fondi Qashqadaryo viloyat muassasasi tomonidan 2020-2021 yillarda bajarilgan "Madaniy meros – oliy qadriyat" mavzusidagi innovatsiya loyihasini amalga oshirishda bajarilgan loyihada foydalanilgan (Xalqaro Amir Temur xayriya Jamoat fondi viloyat muassasining 2022 yilning 12 iyundagi 27-son ma'lumotnomasi). Natijada meliorativ terminlardan xalqning milliy, etnik, madaniy meros obyektlarini aniqlashga doir ma'lumotlar bilan boyitishga xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillari melioratsiya sohasiga doir terminlar leksik-semantik guruhlarga ajratilib, har bir guruh o'z strukturasi va semantik xususiyatiga ko'ra turli ilmiy-texnik tushunchalarni ifodalashi "agrar", "agrar soha", "melioratsiya", "irrigatsiya" kabi terminlar va tushunchalar haqidagi fikr-mulohazalardan Qashqadaryo viloyati "Nasaf" teleradiokanalining tahliliy "Xabarlar" informatsion dasturi va "Ochiq muloqot" eshittirishida foydalanilgan. (Qashqadaryo viloyati TRKning 2022 yil 30 maydagi 180-son ma'lumotnomasi). Natijada "agrar", "agrar soha", "melioratsiya", "irrigatsiya" kabi termin va tushunchalarga oid to'plangan ma'lumotlar asosida ko'rsatuv va eshittirish ma'rifiy va amaliy jihatdan boyitilgan, teledastur uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashuviga, ilmiy dalillarga boy bo'lishiga, ko'rsatuvning ilmiy-ommabopligi ta'minlanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta respublika hamda 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Tadqiqotning asosiy hajmi 141 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish. Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan,

respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Ingliz va oʻzbek tillarida meliorativ terminlarning struktur-grammatik xususiyatlari va leksik-semantik tasnifi”** deb nomlanadi. Bob toʻrt boʻlimdan iborat. Ushbu bobda ingliz tilidagi “melioration” va oʻzbek tilida “melioratsiya” terminlari va tushunchalari xususida aniq va loʻnda taʼrif va izohlar berilgan, zero, tadqiqot mavzusining nomlanishi va uning mohiyati shuni talab qiladi. Bobda meliorativ terminlarning struktur-semantik xususiyatlari yoritilgan va leksik-semantik tasnifi berilgan.

Ingliz va oʻzbek tillarida melioratsiya terminologiyasining shakllanish manbalarini aniqlashda mavjud maʼlumotlarga asosan, Oʻrta Osiyoda melioratsiya qadimgi davrlardan qoʻllanila boshlagan. Miloddan avvalgi 6-5 ming yilliklarda togʻ oldi hududlarda liman va qayir usulida dehqonchilik qilingan⁹. Oʻzbekistonda esa melioratsiya sugʻorma dehqonchilik meliorativ jihatdan eng qulay boʻlgan joylar bundan 3-3,5 ming yil muqaddam paydo boʻlgan va keyinchalik ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiy etgan sari yerlarning meliorativ holati yaxshilangan¹⁰. Birinchi bobning 1-boʻlimida ingliz tilidagi melioration termini va tushunchasining mohiyati haqida fikr yuritilgan¹¹. Birinchi bosqichda mazkur terminning mohiyati, umummilliy tabiati, uning turlari *gidromelioratsiya, agromelioratsiya, kulturtexnik melioratsiya, kimyoviy melioratsiya* koʻrinishlarida namoyon boʻlishi tahlil etilgan:

1.1-jadval

T/r	Ingliz tilida melioratsiya sohasining turlari	Oʻzbek tilidagi tarjimasi
1.	Hydromelioration	Gidromelioratsiya
2.	Agroforestry melioration	Agrooʻrmon melioratsiyasi
3.	Cultural technician melioration	Kulturtexnik melioratsiya
4.	Chemical melioration	Kimyoviy melioratsiya

Keyingi bosqichda terminning yevropacha milliy tafakkurga xos jihatlari namoyon boʻladi: *gidromelioratsiya*: “quritish tadbiri”, “toshqinga qarshi tadbir”, “selga qarshi tadbir”; *agromelioratsiya*: “oʻrmonlashtirish”, “yaylovashtirish”, “yaylovlashishga qarshi kurash”; *kulturmeliioratsiya*: “oʻrmon qoldiqlaridan tozalash”, “har xil predmetlardan tozalash”, “qumoqlash”; *kimyoviy melioratsiya*: “ohaklash”, “gipslash” kabi. Shu asosda, Yevropa xalqlari milliy ongida *melioration* termini dehqonchilik uchun moʻljallangan yer botqoqliklarini quritish, toshqin va selga qarshi choralar, oʻrmonlashtirish, yaylovashtirish va yaylovlashishga qarshi kurash, oʻrmon qoldiqlari va har xil predmetlardan tozalash,

⁹ Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. –Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 5-жилд, 2003. – Б.583.

¹⁰ Раззоков А. Ўзбекистон мелиорацияси: ўтмиш, бугун, келажак. –Тошкент: Фан, 1988. – Б. 5

¹¹ www.collinsdictionary.com

qumoqlash, ohaklash, gipslash kabi chora-tadbirlar majmui konseptual mohiyatiga egaligi haqidagi xulosa qilish mumkin.

O‘zbek tilidagi *melioratsiya* termini esa quyidagi izohlarda o‘z mohiyatini namoyon qiladi: **melioratsiya** – o‘zbek dehqonchiligi tarmog‘ining tarkibiy qismi, suv bilan ta‘minlash tadbirlari majmui, yerni zax suvlar va tuzlardan tozalash tadbirlari majmui, yer sifatini saqlab qolish va yaxshilash uchun o‘simliklarni o‘ziga xos tarzda ekish tadbirlari majmui, eroziyaga qarshi maxsus o‘rmonchilik tadbirlari. O‘zbek tilida melioratsiya sohasi mavjud darslik, qo‘llanmalarda va boshqa adabiyotlarda quyidagi tarmoqlarga bo‘linishi ko‘rsatilgan:

1.2-jadval

O‘zbek tilida melioratsiyaning turlari			
1	“Gidrotexnika melioratsiyasi”		
2	“Agrotexnika melioratsiyasi”		
3	“Madaniy texnika melioratsiyasi”		
4	“O‘rmon texnikasi melioratsiyasi”		
5	“Gidrotexnika melioratsiyasi”		
6	“Gidromelioratsiya”	1	“Sug‘orish melioratsiyasi”
		2	“Zax qochirish melioratsiyasi”

O‘zbekiston hududidagi melioratsiya ishlarining o‘ziga xosligi o‘zbek xalq ongida *melioratsiya* terminining o‘ziga xos anglanilishiga sabab bo‘ladi.

Umuman olganda, ingliz tilidagi *melioration* terminini va tushunchasining ta‘rifi quyidagicha: 1. **a meliorating or being meliorated; improvement.** 2. **Linguistics the process by which the meaning or connotation of a word becomes more positive**¹². Ingliz tilida “*melioration*” terminining sinonimi sifatida “*reclamation*” termini keng qo‘llaniladi. Shuning uchun lug‘atlarda melioratsiya terminining izohlarini o‘zbek, rus, ingliz tillarida quyidagicha ta‘riflash mumkin:

1.3-jadval

Melioration terminining uch tildagi ta‘rifi

O‘zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
Melioratsiya – bu ishlatilgan yerlarning tabiiy sharoitlarini yaxshilashni qamrab oladigan xalq xo‘jaligining bir sohasi. Melioratsiyaning vazifasi yer resurslaridan eng samarali foydalanish uchun sharoit yaratishdir.	Мелиорация – отрасль народного хозяйства, охватывающая вопросы улучшения природных условий используемых земель. Наибольшее значение имеют сельскохозяйственным, задачей которых является создание условий для наиболее эффективного использования земельных ресурсов.	Melioration// Reclamation – is a branch of the national economy that covers the improvement of the natural conditions of the used lands. The aim of reclamation is to create conditions for the most efficient use of land resources.

Mazkur bobning ikkinchi bo‘limida “*Chog‘ishtirilayotgan tillarda meliorativ terminlarning struktur-grammatik xususiyatlari*” yoritilgan. Hozirgi zamon tilshunosligida turli birikmali terminlarni struktur-grammatik jihatdan o‘rganish muammolari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa nazariy va amaliy terminologiyaning nafaqat asosiy muammolaridan bo‘lib kelmoqda, balki ilmiy – texnik tarjimaning dolzarb masalalaridan biridir. Melioratsiya terminologiyasida tub terminlar, ya‘ni *drenaj, irrigatsiya, suv, zovur, zax, sho‘r, meliorator, akveduk*

¹² <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/melioration>

kabi terminlar kam sonni tashkil etganligi uchun biz ushbu bo‘limda birikmali meliorativ terminlarga tahlil etishni lozim topdik.

Tilshunoslikda ikki yoki undan ortiq so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan yangi, yaxlit terminlar ko‘pincha *birikma terminlar, qo‘shma terminlar, birikmali terminlar, tarkibli terminlar, tarkibli nomlar* (rus tilshunosligida – *составные наименования*) kabi nomlar bilan ifodalanadi. Melioratsiya sohasiga oid terminlarning inglizcha-o‘zbekcha lug‘atlarda berilishi tahlili uchun nisbatan ko‘p so‘zni qamrab olgan Sh.Butayevning lug‘ati¹³ dan foydalandik.

Bizningcha, *birikma terminlar, tarkibli terminlar, tarkibli nomlar* (*составные наименования*) o‘rniga *birikmali terminlar* ifodasini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Chunki, qo‘shma terminlar ikki so‘zning qo‘shilishidan hosil bo‘lib, bitta ma‘noni anglatishi *suvdon//water-basin, suvo‘lchov// water-gauge, sog‘tuproq//natural soil, drenaj quvur//drainage-pipeline* – bu tilshunoslar tomonidan e‘tirof etilgan va tushunchaning mohiyatini aniq aks ettiradi. Birikmali terminlar nomi ostida esa ikki yoki undan ortiq terminlarning birikuv natijasida hosil bo‘lgan birikmaviy ifodalar tushuniladi. O‘zbek terminshunosligida bunday birikmali terminlarning yasashini, aynan, “sintaktik usul bilan termin yasash” deb yuritish an‘anaga aylanib ulgurgan.

Mazkur bo‘limda terminologiya uchun xos bo‘lgan eng tipik ko‘rinish bu atributiv, ya‘ni (aniqlanmish + aniqlovchi) strukturaga ega “onomasiologik struktura” lar asosida bo‘lgan birikmali terminlardir. Eng tarqalgan guruhni, aniqlovchi komponentni ot so‘z turkumi namoyon etadigan, birikmali terminlar tashkil etadi. Bunday terminlarning soni ancha miqdorni tashkil etadi. Birikmali terminlarning son jihatdan ko‘pligini har qanday ot so‘z turkumlari o‘rtasidagi ma‘noviy munosabatni bera olish imkoniyatiga ega ekanligidadir. Bu holatda ot va sifat so‘z turkumlari o‘rtasidagi ma‘no farqlari unchalik sezilmaydi. Masalan, *low flow – past oqim, river flow – daryo oqimi, open basin – oqimi bor suv xavzasi (basseyni), irrigation basin – sug‘orish havzasi* va boshqalar. Ot+ot modeli strukturaviy munosabat quyidagi terminlarda namoyon bo‘ladi: a) ikki oddiy ot birikmasi: *spray nozzle – suvni sachratib beruvchi moslama, field weir – tuproqosti sug‘orish sistemasini boshqaruvchi uskuna*; b) oddiy ot va yasama otlar birikmasi (ba‘zida ikki yasama ot ishtirok etishi mumkin): *infiltration ditch – infiltratsiyali drenaj, drainage melioration – yer zaxini qochirish melioratsiyasi*; B) sodda va qo‘shma otlar birikmasining aniqlovchi komponent sifatida: *groundwater basin – yer osti suvlari xavzasi, check-basin irrigation – suv bostirib sug‘orish, night-storage irrigation – tungi sug‘orish*;

- *type* komponentli murakkab otlar asosan turli xil uskunalarni, uskunalar elementlarini, asboblarni nomlab kelsa, kam xolatlarda melioratsiyaning mavhum nomlari sifatida ishlatiladi, masalan, *spectacle-type gate – aylana to‘g‘on, screw-type flowmeter – suv sarfini o‘lchaydigan parrakli asbob*.

Bobning uchinchi bo‘limi “*Birikmali meliorativ terminlarning leksik-semantik tasnifi*” deb nomlangan. Birikmali terminlarni leksik-semantik jihatdan tasniflash asosida D.S.Lotte tomonidan ishlab chiqilgan termin tizimlarini leksik-

¹³Butayev Sh., Irisqulov A. English-uzbek Uzbek-English Dictionary (70.000 words and expressions) / Inglizcha-o‘zbekcha o‘zbekcha-inglizcha lug‘at (70.000 so‘z va ibora). – Toshkent: Fan, 2009. – B. 848

semantik guruhlarga ajratib chiqish tasnifi yotadi¹⁴. Birikmali terminlarni LSG (leksik-semantik guruhlar)ga tasniflab chiqishda, avvalo, ularning nomlanish nazariyalari va onomasiologik tasviridan boshlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi¹⁵. Sohaviy terminologiyada ularning nomlanishida predmetga xos bo‘lgan turli belgilarning mantiqiy munosabati yotadi, shuning uchun ham LSG o‘zida strukturaviy birlikni, u yoki bu kichik sistemaning mikrosistemasini mujassam etadi.

Har bir konkret terminologiyaning onomasiologik kategoriyasini ifodalashda o‘zining shaxsiy vositalari ishlatiladi. Meliorativ terminologiyada tushuncha kategoriyalarini til vositalari orqali namoyon qilishda birikmali aniqlikni olgan, tor soha terminlari, umumilmiy terminlar, hamda adabiy til so‘zlaridan foydalaniladi.

Umumilmiy so‘zlarning mavhumligi va ma’no kengligi, ularning yana bir muhim belgisiga e’tibor qaratadi – bu belgi semantik yetishmovchilikdir. Masalan, ingliz tilidagi *system* termini ishtirokida, borliqdagi turli obyektlar tushunchalarini belgilab berishda xizmat qiladigan meliorativ terminlarning katta qismi tashkil topgan. Masalan, *drip system – tomchilatib sug‘orish sistemasi; soil moisture sensing system – tuproq namligi datchigi (o‘lchab beruvchi asbob); center-pivot system – aylanib xarakat qiluvchi yomg‘irlatib suv quyish qurilmasi; surface-subsurface drainage - kombinativ drenaj tizimi*.

Shunday qilib, birikmali terminning konkret ma’nosi, umumilmiy til fondiga kirgan, tayanch so‘z hamda uni ma’lum leksik-semantik guruhga biriktirilishi, faqatgina ular yoniga so‘z-aniqlovchi ishtiroki asosida, u yoki bu tushuncha kategoriyalarga tegishlilikini aniqlash mumkin. Umumilmiy so‘zlarning yana bir muhim semantik hususiyatlaridan biri – bu ko‘p ma’noligidir. Demak, *system* elementi ishtirokida tuzilgan terminlar “rang-barang” bo‘lgan mazmunni anglatib, umumiy ma’nodan boshlab, tor ma’noda tugashi mumkin. Ayrim hollarda, *system* termini, tilda mavjud nomlarda *a group of things or parts working together – narsa yoki qismlarning bir bo‘lib ishlashi* o‘z ma’nosini saqlaydi, masalan, *irrigation system – sug‘orish tizimi; ditch system – kanal orqali sug‘orish tizimi; underground pipeline water conveyance system – yer osti quvurlari orqali sug‘orish sistemasi*.

Yuqorida keltirilgan misollarda *system* termini tor soha terminlari *sprinkler, irrigator, device* kabilar bilan sinonimik munosabatlarga osongina kirishadi. Bu vaziyatda, odatda nutq so‘zlovchi *system* terminini obyektini nomlash uchun ishlatmasa, va konkret nomni emas, apparat yoki mashina tarkibini ifodalaydi. Shuni aytish kerakki, *system* terminining oxirgi ma’nosi o‘z vazifasini bajarishida muhim rol o‘ynamaydi.

Biz tadqiqotimiz davomida biz o‘zimiz to‘plagan ingliz va o‘zbek tillaridagi meliorativ terminlarni quyidagi 10 ta LSGga ajratib tahlil qildik. Bunda muallif tomonidan tuzilgan “O‘zbekcha-ruscha-inglizcha melioratsiyaga oid terminlarning izohli lug‘ati” asosiy manba vazifasini o‘tadi. Tahlilda, lug‘atda berilgan 539 ta

¹⁴ Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. Вопросы теории и методики. – Москва, 1961.С.158.

¹⁵Константинова Г.А. Теория номинации и ЛСГ.//Вопросы логической и грамматической семантики. - М., 1982.С.50-57.

melioratsiyaga oid tub, yasama, birikmali terminlar o‘zaro ikki tilda qiyoslandi va tahlilga tortildi.

1.4-jadval

Ingliz va o‘zbek tillarida meliorativ terminlarning LSGlari

t/r	Leksik-semantik guruhlar	Terminlar soni	
		Umumiy soni	% da ulushi
1	Melioratsiya sohasida ishlatiladigan qurilmalar va ularni qismlarini ifodalovchi LSG	223	41,4
2	Melioratsiya sohasida o‘lchov birliklarini ifodalovchi LSG	62	11,5
3	Melioratsiya sohasida jarayonlarni anglatuvchi LSG	58	10,8
4	Melioratsiya sohasida mashina, asboblarni ifodalovchi LSG	43	8,0
5	Melioratsiya sohasida detal va qurilmalar elementlarini ifodalovchi LSG	36	6,7
6	Melioratsiya sohasida bo‘shliq, ko‘lamlarni ifodalovchi LSG	31	5,8
7	Melioratsiya sohasida asboblarni ifodalovchi LSG	25	4,6
8	Melioratsiya sohasida kenglik va yuzalarni ifodalovchi LSG	22	4,1
9	Melioratsiya sohasida modda, materialni ifodalovchi LSG	20	3,7
10	Melioratsiya sohasida usullarni ifodalovchi LSG	19	3,5
	Jami	539	100,0

Ikkinchi bob “**Ingliz va o‘zbek tillarida meliorativ terminlarning ma’no munosabatlari**” deb nomlangan mazkur bob uch bo‘limdan iboratdir. Birinchi bo‘lim “*Meliorativ terminlarning sinonimik munosabatlari*” nomida berilgan. Ushbu bo‘limda sinonimiyaning terminshunoslikda murakkab va to‘liq yechimga ega bo‘lmagan muammo hisoblanib, shu bilan birga bu lisoniy hodisaga nisbatan turli va odatda bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan fikrlar mavjudligi to‘g‘risida firkmulohazalar bildirilgan. Ayrim olimlar esa terminlarning sinonimiyasini tan olishmaydi, aksincha terminshunoslikni dubletlik hodisasi deb hisoblashadi¹⁶. Bu hodisaning tilshunos olimlar tomonidan inkor etilishiga sabab, termin yagona – bir ma’noli so‘zga va ma’noga ega bo‘lgan predmet va hodisani anglatadi. Terminshunoslikda kichik ikki bo‘lakli sinonimik qatorlar kabi ko‘p bo‘lakka ega bo‘lgan qatorlar ham mavjud¹⁷. Masalan: *reserve irrigation - water-charging irrigation* “namlik bilan sug‘orish”; *long-range sprinkler – giant sprinkler* “uzun oqimli yomg‘ir apparati”. Bizning fikrimizcha, ularning hammasi u yoki bu jarayon va hodisa nomlanishi qatorlariga to‘laqonli kira oladi va, asosan, qo‘llanilishiga ko‘ra farqlanadi. Masalan, *land levelling, land grading, land shaping* terminlari sinonimlar hisoblanadi, biroq, *land leveling* termini *land grading, land shaping* terminlaridan farq qiladi, chunki ular yer yuzasini sug‘orishga tayyorlash haqida so‘z borgan holatlardagina ishlatiladi.

¹⁶ Звегинцев В.А. Семасиология.-М.: МГУ,1957. С.324.; Толикина Е.Н. Некоторые лингвистические проблемы мучения термина. // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. - М.; 1988. - С.59-67.; Налепин В.Л. Термин и терминологическая система как предмет лексикологии: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. И., 1979. - С.16.

¹⁷ Прохорова В.Н. Семантика термина. // Вестник МГУ*- Сер.9. - 1981.-Ж 3. - С.28.

Terminlar anglatadigan barcha ma'nolar ham sinonimik munosabatlarga kirishavermaydi. Masalan, *surface storage* terminining mavjud bo'lgan 1) "yuqori sath suv havzasi", 2) "suv yuzasi sathi (to'g'on) hajmi", 3) "yuza suvlar zahiralari" singari uch ma'nosidan faqat ikkinchi ma'nosiga sinonim bo'la oladi, ya'ni "suv yuzasi sathi (to'g'on) hajmi" – *temporary storage*. Bu, o'z navbatida, o'zining ikkinchi ma'nosiga sinonim bo'ladi. 1) "daryo o'zanini boshqarish" 2) "suv yuzasi sathi (to'g'on) hajmi".

Mazkur bobning ikkinchi bo'limida "Meliorativ terminlarning antonimik munosabatlari" tadqiq etilgan. Terminologik tizimda antonimlar mavjudligi haqidagi olimlarning fikrlari bir-biridan farq qiladi. Bir guruh olimlar terminologiyada antonimiya borligini inkor etishadi¹⁸. Terminlar sistemasini lingvistikaning kichik bir strukturasi deb hisoblaydigan, boshqa bir guruh olimlar esa, terminologiyada antonimik munosabatlar oddiy leksik munosabatlardan farq qilmaydi: terminologiyada ham umumiy tildagi kabi qarama-qarshi qo'yish tamoyili (prinsipi), antonimik juftlik yasalishi mavjud.¹⁹ Bunday holda antonimik munosabatlar shartli xususiyatlarni ifodalaydi, masalan: *uniform filter – graded filter – bir jisimli filtr – bir jisimli bo'lmagan filtr, free-flow irrigation – submersion irrigation – tartibli sug'orish – tartibsiz sug'orish, active storage – dead storage – suv omborining faol sig'imi – suv omborining passiv sig'imi*. Xulosa qilib aytganda, meliorativ terminologiya sistemasida jarayonlar, hodisalar, ularning xususiyatlari va belgilarini ifodalagan terminlar o'rtasida, ushbu terminologiyani sistemali tashkil etishda, muhim rol o'ynaydigan antonimik munosabatlar mavjud.

Uchinchi bo'lim "Meliorativ terminlar polisemiya" deb nomlanadi. Unda terminologiyada polisemiya lisoniy hodisa sifatida misolar asosida tahlil etilgan va o'rganilgan. Polisemiya deb, odatda so'zning bir necha ma'noni anglatishi, ya'ni nomning turli birliklari sifatida ifodalanishiga aytiladi. Melioratsiyada terminlarning ishlatilish dalillari terminologiyada polisemiyaning mavjudligini isbotlaydi. Mazkur bo'limda birikmali terminlar polisemiya aniqlovchi komponentning ko'p ma'nolilik natijasida yuzaga kelishi kuzatildi. Masalan, *ditch* termini 1) *ariq*, 2) *kichik taqsimlovchi kanal* kabi ko'p ma'nolilikni kasb etadi, hamda *ditch irrigation* – 1) *chuqur egatlarda sug'orish*, 2) *kanallardan sug'orish* birikmali termin ham bunga misol bo'ladi.

Birikmali terminlarning ko'pma'nolik strukturasi quyidagi ma'no guruhlari mavjud: a) predmet – uning qismi "rotation sprinkler – 1) aylanib xarakatlanuvchi yomg'irlatib sug'orish uskunasi, 2) aylanib xarakatlanuvchi, o'rnatmali yomg'irlatib sug'orish uskunasi;" b) hodisa - jarayon "water flow – 1) suv oqimi, 2) oqim;" d) obyekt – uning tarkibi "water body – 1) hovuz, 2) suyuklik (suv) massasi;" e) xususiyat – unga bog'liq hodisa "soil-moisture content – 1) grunt

¹⁸ Хаютин А.Д. Термины, терминология, номенклатура. Учебное пособие. Самарканд. 1988. С.124.; Гендлина Е.С. Исследование семантических категорий терминологических устойчивых словосочетаний современного немецкого языка: автореф.дис.канд.филол.наук. 10.02.04. – М. 1977. – С.25.; Новиков Л.Л. Антонимия в русском языке /семантический анализ противоположностей в лексике/ Изд.Моск.ун-та, 1973. - С.290.

¹⁹ Прохорова В.Н. Лексико-семантическое образование русской терминологии: автореф.дис.доктора филол.наук.10.02.04. М., 1983.С33.

(*tuproq*) namligi, 2) *grunt* (*tuproq*) namligi o'Ichami;" f) qism – butun “*irrigation water* –1) *sug'orish suvi*, 2) *sug'orish suvi hajmi*;" j) mavhum tushuncha – konkret tushuncha “*hydraulic lift* – 1) *pyezometrik asboblar*;2) *gidravlik uskuna*”.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Ingliz va o'zbek tillarida meliorativ terminlarning derivatsion va nominatsion-motivatsion xususiyatlari**” deb nomlangan bo'lib, to'rt bo'limdan tarkib topgan.

Birinchi bo'limda “*Meliorativ terminlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi*” haqida fikrlar yuritilgan. Tilshunos H.Dadaboyevning ta'kidlashicha, o'zbek tilida terminlarning aksariyatini motivlangan, ya'ni so'z-terminlar (qo'shimchalar qo'shishi bilan yasalgan), termin-qo'shma so'zlar hamda semantik (asosan metaforik) ko'chim asosida hosil qilingan terminlar tashkil qiladi²⁰.

